

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA MA’NAVIY AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Sulaymonova Shaxzoda Shuhrat qizi

Fan va Texnologiyalar universiteti “Boshlang‘ich ta’lim”

yo‘nalish 2-bosqich talabasi

Qalqanov Eshmatboy Toshpulatovich

Fan va Texnologiyalar universiteti dotsenti falsafa

fanlari nomzodi Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Yangi O‘zbekistonda Yoshlarda ijtimoiy-madaniy va ma’naviy axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari yoritilgan. Shuningdek maqolada, yoshlarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma’suliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, mafkura, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, ilm, vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma’suliyatlilik, tolerantlik, mehnatsevarlik, yoshlar.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan chamcharchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga dunyo miqyosida shunday o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqdaki, ushbu o‘zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni boringki, butun insoniyatning hayotini o‘zgartirib yubormoqda. Ushbu o‘zgarishlar jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o‘rni juda katta hisoblanadi. Bularning barchasiga ta’lim tizimida olib boriladigan sifatli ta’lim-tarbiya orqali erishiladi.

Milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishdan asosiy maqsad, ularni ona Vatan oldidagi burchi, o‘z taqdiri uchun mas’ul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilari hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Oila ta’lim tarbiya maskani bo‘lib, milliy g‘oya va ma’naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirish aynan oiladan boshlanadi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi va bu jarayon yuksak ma’naviyatlilikni talab etadi. Mustaqillik yoshlar kamolotida yangicha talablar ham qo‘ydi. Har qachongidan ko‘ra ko‘proq ichki va tashqi go‘zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi.

Yoshlardagi faqat tashqi ko‘rinish estetik madaniyatning yaxshi bo‘lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqdan pokiza, ma’naviy dunyosi boy, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo‘lishi kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar talab etila bohlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma’naviy sohalarida ham

islohotlar olib borish zaruriyati nazarda tutildi. "Biz uchun, degan edi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov, "...ma'naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim"[5]. Binobarin sog'lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek sharqona axloq-odob va umumbashariy va ma'naviy qadriyatlar asosida kamol topgan insonni ham nazarda tutmog'i lozim. Zero buyuk alloma Abdulla Avloniy aytganidek: "tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir"[6, 138-140]. Hayotga ongli munosabatda bo'ladigan, mustaqillik g'oyalari va maqsadlaridan faxrlanadigan inson turmushi va faoliyatida estetik zavq, ulug'vorlik shakllanadi va taraqqiy etadi. Shuning uchun O'zbekiston mustaqillikka erishgach, islohotlarni keng ko'lamda ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalarda avj oldirib yuborgan ekan, bu islohotlar negizini uch ming yillik davlatchilik tariximiz, ma'naviy merosimiz va milliy mentalitetimiz xususiyatlari tashkil qildi va uni og'ishmay amalga oshira boshladi. Ana shu maqsad yo'lida ta'lim va madaniyat sohalarida, aqliy va ma'naviy salohiyatlarni mustahkamlash bo'yicha bosqichma-bosqich islohotlar rejalashtirildi va hayotga tadbiiq etildi.

Axloqiy hayot, jumladan, axloqiy madaniyat va axloqiy tarbiyaning bosh substansional elementi inson va uning birliklari ekan, bu borada E.T.Dalkonovning quyidagi falsafiy fikrlarini keltirish mumkin: "Inson va uning birliklari. Ular madaniy borliq yuzaga kelishining sub'yektlari yaratuvchisi va tashuvchilari hisoblanadilar. Ular vatanparvarlikning ham sub'yektlari hisoblanadilar. Inson tanasining biomadaniy hodisa sifatida va demakki, uning ijtimoiy munosabatlarga bo'ysungan holda va o'ziga xos madaniylashgan jismoniy kuch sifatida namoyon bo'lishi vatanparvarlikning biomadaniy irodaviy zamini bo'lib xizmat qiladi. Agar biomadaniy organizm insonning birinchi tomoni bo'lsa, ijtimoiy ruhiyat va faoliyat qobiliyatining jihatlaridan hisoblanadi. Demak, inson madaniy borliqning yaratuvchisi va avloddan-avlodga tashuvchisi ekan, u vatanparvarliksiz yuz bermaydi"[7, 12]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tabiri bilan aytganda, "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydigan yana bir masala, bu farzandlarimizni mustaqil fikri, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir"[2, 295-297]. Demak, vatanparvarlik axloqiylik tamaddunlaridan biri hisoblanadi. Axloqiylik esa insonlarning ijtimoiy madaniy qismi tarkibiga kiradi. Axloqiy tarbiya va axloqiy madaniyat mohiyatan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Axloqiy madaniyatning bosh maqsadi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasidir. Shu asnoda axloqiy madaniyat ijtimoiy hayot bilan bevosita munosabatga kirishadi. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish bu sohada dunyo xalqlari to'plagan tajribalarini o'rganish va ijtimoiy hayotga tadbiiq etish dolzarblik kasb etadi.

Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy

madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda:

- ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;
- yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
- yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Shundagina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

Milliy ma'naviyatga tayanish uchun inson, avvalo, o'zligini anglab yetmog'i lozim. Zero, bu milliy o'zligimizni anglab yetishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir. Umuminsoniy qadriyatlar har doim milliy qadriyatlar bilan oziqlanadi hamda milliy ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa milliy g'oya negiziga tayanishda butun insoniyatni birlashtirib turuvchi mushtarak omil hisoblanadi. Shundagina biz istiqbolida ma'naviy barkamol insonni, sog'lom fikrlaydigan avlodni tarbiyalashga erishamiz. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar.

Bugungi davr talabidan kelib chiqib, yoshlar muammolarini hal etish mamlakat taraqqiyoti va xavfsizligining kafolati ekan, milliy taraqqiyotning muhim vazifalarini hal etishda, ta'lim-tarbiya berish hamda milliy g'oyamizni targ'ib qilish orqali barcha yoshlarga zarur sharoitlarni yaratish, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, dunyo maydonida o'z tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalash davr talabidir.

Jahondagi har bir xalq va davlat o'z yoshlarini milliy g'oya ruhida tarbiyalagan taqdirdagina o'z kelagini ta'minlashi, yuksak taraqqiyotga erishishi mumkinligini hozirda butun dunyo tan olmoqda. O'zbekiston mustaqillik yillarida yosh avlodni intellektual jihatda kuchli, jismonan baquvvat, ma'nau sog'lom etib tarbiyalashga alohida urg'u berib keladi. Maxsus dasturlar tashkil etilmoqda, milliy g'oya, milliy mafkurani targ'ib etish bo'yicha, jahon chempionlari, mashhur san'atkorlar bilan uchrashuvlar va davra suhbatlari muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B.440.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston’’, 2007. 295-297-b.
3. Boysunov J. O‘zbekistonda yoshlar ma’naviy madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. – Buxoro, 2023. – B.49.
4. Yoqubov S. Axborot jamiyati: xayolot emas, haqiqat. Tafakkur-2007, 4-son
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. Ma’naviyat, 20008, 138-140-bet
6. Zokirov B. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari. Tafakkur: 2007. 2-son.

